

Demografik muammolarga davlat e'tibori

Mirzaliyev Ulug'bek

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori dotsent

Bobojonov Salohiddin

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi 3-kurs talabasi

Guliston davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ijtimoiy demografiya haqida umumiy ma'lumot, O'zbekistonda demografik muammolarga davlat e'tibori haqida ma'lumotlar berilgan.*

Tayanch iboralar. *Demografiya, O'zbekistondagi demografik holat, O'zbekistondagi demografik muammolar*

Demografiya (qadimgi yunoncha demos — xalq va grafiya-yozaman) — har yili turli sabablarga ko'ra vafot etgan aholi o'rnini yangidan dunyoga kelgan avlod hisobiga to'ldirib borilishi qonuniyatlarini ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga bog'lik holda o'rganadigan fan. Demografiyaning paydo bo'lishi asosan 17-asrning 2-yarmidan angliyalik olim J. Graunt (1620— 1674) tadqiqotlari bilan bog'likdir. Demografiya terminini 1855 yilda fransuz olimi A. Giyar qo'llagan. 1882 yil Xalqaro gigiyena va demografiya kongressining Jeneva sessiyasida rasmiy qabul qilingan. 19-asr oxiri — 20-asr boshlarida keng tarqaldi. O'zbekistonda, asosan 1960-yillardan qo'llanila boshladi.

Demografiyaning maqsadi muayyan hudud, mamlakat, dunyo aholisi va millatning takror barpo bo'lishi jarayoni va omillarini o'rganish, muammolarni belgilab, yechimlarni aniqlash va istiqbolini ko'rsatib berishdan iborat. Demografiyaning vazifalari: demografik jarayonlar (tug'ilish, o'lim, nikoh va

ajralish, oilaning demografik xususiyatlari, aholining yosh-jinsiy va oila-viy tarkibi, demografik mayl) va ularning omillarini o‘rganish; demografik bashorat (ma’lum hudud aholisining soni, yosh-jinsiy tarkibi va demografik vaziyati istiqbolini ilmiy asoslangan holda oldindan aniqlash)larni ishlab chiqish; demografik siyosat (aholi siyosatining uzviy qismi bo‘lib, uning asosiy maqsadi aholining miqdoriy o‘rishini boshqarishdan iborat) choratadbirlarini ishlab chiqish. Demografik siyosat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ilmiy asosini tashkil etmog‘i lozim. Shundagina jamiyat har tomonlama muntazam rivojlanib boradi.


O‘zbekistonning demografik holati: aholi orasida kuzatilgan o‘lim va uning sabablari ma’lum qilindi


2022 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, hududlar bo‘yicha aholi zichligining eng yuqori ko‘rsatkichi Toshkent shahri, Andijon va Farg‘ona viloyatlarida, eng past ko‘rsatkichlar Navoiy, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida qayd etilgan.



Davlat statistika qo‘mitasi 2021-yilgi O‘zbekiston Respublikasining demografik holati bo‘yicha dastlabki ma’lumotlarni e’lon qildi.

O‘zbekistonning doimiy aholisi soni 2022-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 35mln 271,3 ming kishini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 712,4 ming kishiga yoki 2,1 foizga ko‘paygan. Jumladan, shahar aholisi soni 17million 918,3 ming kishini, qishloq aholisi soni esa 17million 353 ming kishini tashkil etgan. Ma’lumot uchun: BMTning aholishunoslik jamg‘armasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yil 1-yanvar holatiga yer yuzidagi jami aholi soni 7mlrd 875mln kishini tashkil etgan. O‘zbekiston aholi soni bo‘yicha 43-o‘rinda qayd etilgan.






Respublikada 2021-yilda tug‘ilganlar soni oldingi yilga nisbatan 63,4 ming kishiga yoki 7,5 foizga ko‘paygan, vafot etganlar soni esa 2020 yilga nisbatan 1,1 ming kishiga yoki 0,6 foizga kamaygan. Shuningdek, qayd etilgan nikohlar soni 2020-yilga nisbatan 8,3 ming kishiga yoki 2,8 foizga, nikohdan ajrashganlar soni 11 ming kishiga yoki 39 foizga oshgan. Joriy yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, respublika doimiy aholisi sonining 31,2 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 57,6 foizi mehnatga layoqatli yoshdagilar va 11,2 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

2022-yilning 1-yanvar holatiga 1kvadrat kilometrda o‘rtacha 78,6 kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 1,6 kishiga ko‘proq (2021-yilda 1 kv.km.ga 77,0 kishi). Hududlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichligining eng yuqori ko‘rsatkichi Toshkent shahri (8035,1 kishi), Farg‘ona (576,4 kishi) va Andijon (756,6 kishi) viloyatlarida, eng past ko‘rsatkichlar Navoiy viloyati (9,3 kishi), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (11,7 kishi) va Buxoro viloyatida (49,1 kishi) qayd etilgan.

Ўзбекистон Respublikasi bo'yicha aholi zichligi
2022-yil 1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




2021-yil davomida 905,2 mingta bola tug'ilgan bo'lsa, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 25,9 promilleni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2020 yilga nisbatan (24,6 promille) 1,3 promillega balandroq. 2021 yilning yanvar-dekabr oylarida 174,5 mingta o'lim holati kuzatilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 5 promilleni tashkil etgan hamda 2020-yilga nisbatan (5,1 promille) - 0,1 promillega kamaygan.

O'tgan yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining 61,7 foizi – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,8 foizi – o'simtalardan, 6,7 foizi – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,2 foizi – baxsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,1 foizi – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,1 foizi – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 11,4 foizi esa boshqa kasalliklardan vafot etgan.

O'limning asosiy sabablari bo'yicha taqsimlanishi

yanvar-dekabr



Aholi sonining o'sib borishi, ishsizlik va ta'limdagi korrupsiya: Financial Times O'zbekistondagi demografik muammolar haqida



Financial Times nashrida zamonaviy O‘zbekistonga bag‘ishlangan maxsus hisobot chop etildi. 11 ta maqoladan iborat hisobotda iqtisodiy o‘shish, xususiylashtirish, xalqaro bozorlarga kirish, yashil energetika, raqamli iqtisodiyot, inson huquqlari, mintaqaviy xalqaro munosabatlar, aholishunoslikka doir maqolalar o‘rin olgan.

Birinchi maqola O‘zbekistondagi aholi sonining o‘shishi hamda hukumatni kutayotgan ishsizlikka doir muammolarga bag‘ishlanadi. «O‘zbekiston – yoshlar mamlakati: o‘tgan 2020 yilda 800 mingta chaqaloq dunyoga kelgan, bu – 2010 yilga nisbatan 25 foizga ko‘p. UNICEF'ning oxirgi hisobotlarida mamlakat aholisining deyarli yarmini 30 yoshga to‘lmaganlar tashkil qilishi aytilgan. Bu O‘zbekiston tarixidagi eng ko‘p ishchi kuchini tashkil qiladi.

2046-yilga borib, mamlakatda mehnatga layoqatli aholi soni 27 million kishiga yetishi kutilmoqda va hukumat bu insonlarga ish topib berishi kerak bo‘ladi. Lekin hozirgi vaqtning o‘zida yana bir katta muammo bor: o‘zbekistonlik yoshlar o‘rtasidagi ishsizlik darajasi 15,2 foizni tashkil qiladi. Bu o‘rtacha ko‘rsatkichlardan 1,5 barobar ko‘p. Ko‘plab yoshlar munosib ish qidirib mamlakatni tark etmoqda. Demografik muammolarni yechish maqsadida 2021-yil «Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligi yili» deb e‘lon qilindi. Yoshlarga doir davlat siyosati isloh qilinib, unga yoshlarni kasblarga bepul o‘qitish, tadbirkorlik va startaplar uchun grantlar e‘lon qilish, aholining deyarli yarmi istiqomat qiluvchi qishloq joylarida qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi yoshlarga subsidiyalar berish kabi yangi loyihalar qo‘shildi. Shuningdek, yangi dastur yoshlarni madaniyat, jismoniy tarbiya va sport hamda san‘atga jalb qilish, ularning axborot texnologiyalari sohasidagi bilimlarini oshirish, yoshlar orasida kitobxonlikni targ‘ib qilish va ayollar bandligini ta‘minlashni ham o‘z ichiga olgan.

BMT qoshidagi Xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda mehnatga layoqatli ayollarning 33 foizi asosiy ish sifatida haq to'lanmaydigan ish faoliyati bilan shug'ullanadi. Hukumat ma'lumotlariga ko'ra, yoshlarga doir davlat siyosati e'lon qilinganidan buyon, uning ijrosiga 1,4 trillion so'm, deyarli 131,1 million dollar mablag' sarflangan. Ushbu dastur bilan «zamonaviy tadbirkorlik ko'nikmalari rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish», shuningdek, «voyaga yetmaganlar orasida jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish, oilaviy ajralishlar sonini kamaytirish, kuchli vatanparvarlik g'oyasi va mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish» maqsad qilingan. Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayevning so'zlariga ko'ra, shahar va qishloq joylardagi ta'lim sifatiga doir muammolar turlicha. Ayrim maktablarda hatto asosiy kommunal xizmatlar: elektr energiyasi, gaz va toza ichimlik suvi yo'q. O'zbekistonda 18 yoshgacha ta'lim olish majburiy bo'lsa-da, lekin amalda maktab tizimi har doim ham o'z vazifalarini bajara olmaydi. Masalan, UNICEF hisobotida shunday deyiladi: «Hozir maktablarda o'z fanini unchalik yaxshi bilmaydigan o'qituvchilar bor. Shunday pedagoglar tufayli o'quvchilar kam bilim olishyapti, ota-onalar esa pulli repetitorlarga pul sarflashga majbur bo'lmoqda». Shuningdek, ko'pincha oila uchun pul topish bosimi ostida, ayniqsa qishloq joylarda, maktab o'quvchilari universitetlarni hayotining keyingi bosqichi deb hisoblamaydi. O'tgan yili hukumat 9-infnii tamomlagan o'quvchilar va ishsiz fuqarolar uchun professional tayyorlov kurslarini ishga tushirdi.

Oliy ta'lim tizimiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. 2030-yilga qadar maktab bitiruvchilarining yarmi oliygohlarga hujjat topshirishi reja qilingan. Bu borada nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalariga kirgan talabalarga ajratilgan 200 million dollar miqdoridagi grant va stipendiyalar ham rag'batlantirishning bir turi sifatida tanlangan. Lekin ta'lim tizimidagi korrupsiya o'quvchilar va ularning oilalarini qiynab kelmoqda. UNICEF ma'lumotlariga ko'ra, o'qituvchilar baho qo'yib berish

uchun pora so‘rashi holatlari ko‘p uchraydi. Natijada moliyaviy qiyin ahvolga tushib qolgan o‘quvchilar [talabalar] o‘qishni tashlab ketishga majbur bo‘ladi. Shuningdek, eski davrda hukumat paxta terishda majburiy ravishda bolalar mehnatidan foydalanilgani uchun XMT tomonidan doimiy ravishda tanqid qilib kelingan. Yangi hukumat davrida bolalarning majburiy mehnatidan foydalanish amaliyotidan voz kechilgani, buning uchun javobgarlikning kuchaytirilishi ortidan 2019 yilda AQSh o‘zbek paxtasi importiga qo‘yilgan cheklovni bekor qildi.

Xalqaro mehnat tashkilotining mustaqil hisobotlarida ham 2020-yilda O‘zbekistonda ayrim joylarda bu holat saqlanib qolgani aytilgan bo‘lsa-da, majburiy mehnat bilan bog‘liq amaliyotlar sezilarli kamaygani ma‘lum qilingan. Sa‘dullayevga ko‘ra, «Yoshlar yili» yoshlar orasida keng tarqalgan ishsizlik muammolarini yechishga yordam beradi. Mehnat bozoridagi keyingi raqamlar ushbu g‘oya qanchalik asosli ekanini ko‘rsatadi», – deyiladi Financial Times maqolasida.

Odatda har qanday mamlakatda yuqori demografik sur‘at, aholi soni va nikohlarning yuqori tezlikda ortib borishi uning iqtisodiy parametrlariga bosimni oshirish bilan birga, ushbu yo‘nalishda qator muammolarni vujudga keltirishi mumkin. Avvalgi bo‘limda demografik jarayonlarning ijtimoiy sohalarga ta‘siri tahlil qilinganda, ularning deyarli barchasida O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi bilan bog‘liq jihatlar ishtirok etganini, ya‘ni har qanday ijtimoiy sohalardagi infratuzilmalarni yaratish, yanada takomillashtirish birinchi galda aholi soni ortishidan kelib chiqib amalga oshirilsada, oxir-oqibat mamlakat iqtisodiyotga ta‘siri ko‘zga tashlanadi. Dunyoning qator mamlakatlari, birinchi galda iqtisodiyoti sust rivojlangan davlatlar aholi sonining yuqori sur‘atlarda o‘sishi, bunga teskari proporsional tarzda iqtisodiyot rivojlanishi past bo‘lganligi bilan ajralib turadi. Osiyoning janubiy, Afrikaning Sahroi Kabirdan janubda joylashgan qator mamlakatlarda ana shu jihatlarni ko‘rish mumkin. Lekin bularning barchasiga

qaramay, agar mamlakat to'g'ri va samarali ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib borsa, demografik jarayonlar, jumladan, aholi sonining ortishidan ijobiy natija bo'lishi ham mumkin. Bunga misol tariqasida inson kapitalidan samarali foydalanish orqali demografik bosimdan ijobiy natija chiqarish mumkin. Ma'lumot uchun, Jahon bankining 192 mamlakatda o'tkazgan tadqiqotlariga ko'ra, zamonaviy iqtisodiyotda jismoniy kapital umumiy boylikning 16 foizini, tabiiy kapital 20 foizni, inson kapitali esa 64 foizni tashkil etadi. Yaponiya, Germaniya va Shvesiyada inson kapitali ulushi 80 foizga yetadi, Rossiyada esa atigi 14 foizni tashkil etadi. Yuqorida qayd etilgan iqtisodiyoti sust rivojlangan mamlakatlarda esa undan ham past daraja saqlanib qolmoqda.

BMT e'lon qilgan so'nggi hisobotga ko'ra, 2022-yil 15 noyabr kuni dunyo aholisi 8 mlrd kishiga yetdi. 2023 yilda Hindiston Xitoyni ortda qoldirib, dunyoning aholisi eng ko'p mamlakatiga aylanishi kutilmoqda. BMT aholisi qarib borayotgan mamlakatlarga davlat dasturlarini keksalar sonining o'sishiga moslashtirish, umumiy sog'liqni saqlash va uzoq muddatli parvarish tizimlarini yaratish, ijtimoiy ta'minot, pensiya tizimlari barqarorligini oshirish kerakligini tavsiya qilgan. Keyingi 80 yil ichida aholi soni Yaponiya, Ispaniya va Italiyada ikki baravar, Afrikaning Sahroi Kabirdan janubi-g'arbiy qismida esa uch baravar kamayib ketadi. 2100 yilga borib, 65 yoshdan oshgan odamlar soni 2,4 mlrd kishini, 20 yoshgacha bo'lganlar soni esa 1,7 milliardni tashkil qiladi. Ya'ni dunyoda keksalar yoshlardan ko'p bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlar oldida aholining qarishi va kamayishi ishchi kuchi va malaka taqchilligiga olib keladi. Keksalar ko'pligi iqtisodiy samaradorlik va innovatsiyalarni sustlashtiradi, iqtisodiy o'sish va rivojlanishni sekinlashtiradi, hukumatlar va odamlarga barqaror moliyaviy bosim o'tkazadi. Jamiyatlarda madaniy va etnik siljishlarga olib keladi, siyosiy va etnik o'zgarishlar, mamlakatlar harbiy kuchi kamayishi kabi muammolarni ham ko'ndalang qo'yadi. Hozirgi kunda ayrim davlatlar aholini ko'paytirish uchun turli mexanizmlardan foydalanmoqda.

Xulosa

Xulosa ornida shuni aytish mumkinki dunyo aholisi soni yillar mobaynida goh kopayib goh kamayib bormoqda. Olimlarning ko'p yillik kuzatishlari natijasida dunyo aholisining soni yildan yilga ortib borishi kiyinchalik esa keskin kamayishi prognoz qilinmoqda. Bu yer shari bo'ylab turli global muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ba'zi mamlakatlarda aholi soni kopayishda davom etsa ba'zi mamlakatlarda esa tugulish soni kamayib ketishi taxmin qilinmoqda. Global muammolar oziq ovqat, yer taqchiligi, kelib chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev. Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: "Ozbekiston" NMIU, 2016. -56 B.
2. Mirziyoyev. Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: "Ozbekiston" NMIU, 2017. -484 B
- 3.kun.uz.
- 4.vikipidiya.uz.